



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

SPORT FAOLIYATI YO'NALISHI TALABALARNI NAZARIY BILIMINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Yaqubova Dinora Bahodirovna
Urganch innovatsion universiteti, v.b. dotsent

Annotatsiya

O'quv muassasalarida jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta'lim olayotgan talaba yoshlarning sport turlariga qiziqishini oshirish, bilimi, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda. Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsiya, ta'lim uslublari, metodlar, tajriba-sinov ishlari.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Якубова Динора Баходировна
Ургенчский инновационный университет, и.о. доцента

Аннотация

В образовательных учреждениях развитие физического воспитания и спортивно-оздоровительной деятельности, повышение интереса студентов к различным видам спорта, а также укрепление их знаний, умений и навыков становятся требованием времени. Коренное реформирование существующей системы обучения и воспитания, приведение её в соответствие с современными требованиями, создание новой системы подготовки национальных кадров и воспитание гармонично развитого, перспективного поколения являются приоритетными направлениями государственной политики.

Ключевые слова: технология, инновация, методы обучения, методики, опытно-экспериментальная работа.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENHANCING THEORETICAL KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE FIELD OF SPORTS ACTIVITY

Yaqubova Dinora Bahodirovna
Urgench Innovation University, Acting Associate Professor

Abstract

In educational institutions, the development of physical education and sports and health-related activities, increasing students' interest in various sports, and strengthening their knowledge, skills, and competencies are becoming a requirement of the time. Fundamental reform of the existing education and training system, aligning it with modern standards, establishing a new system of national personnel training, and educating a well-rounded and

capable generation for the future are among the priority directions of state policy.

Keywords: technology, innovation, teaching methods, methodologies, experimental work.

Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda aholining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbir etilmoqda. Chunki sport millatning o'zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda millat sifatidagi qudrati jahon uzra namoyon bo'lib muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat sog'lom va yoshlari ko'p bo'lgan millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi.

Boy o'tmish tariximizga nazar tashlasak, ajdodlarimiz yaratib bizga qoldirgan yuksak ma'naviy – madaniy va ta'lim-tarbiya merosi sirasida avlodlarni yoshlikdan jismonan baquvvat qilib tarbiyalashning qat'iy tizimi yo'lga qo'yilganligi guvohi bo'lamiz. Demak, bizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan va rivojlangan o'ziga xos jismoniy tarbiya maktabi mavjud bo'lgan ana shu maktablarning milliylik va umuminsoniylikka asoslangan tarixiy tajribalarga murojaat qilish, undan bugungi yangiliklar va erishilgan yutuqlarni hayotga tadbir etish davr talabidir.

O'qitish maqsadlarini insonparvarlashtirilishi oliy o'quv yurtlarida innavatsion texnologiyalar asosida faniga va maqsadlariga, talabalarning innavatsion texnologiyalar ta'lim uslublari va mazmuniga yangi yondoshish zarurligini talab etadi, bu ayniqsa innavatsion texnologiyalar sikldagi o'quv fanlariga taalluqlidir.

Yuqorida ta'kilab o'tilgan muammolar Davlat ta'lim standartida belgilangan talablar darajasida, hozirgi zamon ilm-fanida uchraydigan integrativ jarayon va bir tomonlama tizimli yondoshuv, ta'lim tizimidagi o'quv fanlarining o'zaro bog'lanishi qonuniyatlaridan paydo bo'layotgan turli pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi asosida amaga oshiriladi.

So'nggi yillar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda (O'.Q.Tolipov, N.E.Shurkova., L.V.Golish., N.Azizxadjajeva). Faol faoliyat jarayonidagina axborotlarni samarali o'zlashtirishga erishish mumkin. Shuning uchun innovatsion texnologiya va ularning rolini o'qish jarayonida takomillashtirishni umuman amalga oshirish bo'yicha talabalarning o'quv - o'rganish faoliyatlarini o'rganish alohida dolzarb ko'rinish oldi.

Talabalarda innovatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirish muhim ilmiy, siyosiy, pedagogik muammo hisoblanadi. Buning uchun, yangi o'qitish metodlari, jumladan innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas.

Didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbai (S.O.Lordkipanidze, Ye.Ya.Golant), didaktik maqsadlar (B.P.Yesipov), bilish faoliyatining saviyasi (I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov va boshqalar.) bo'yicha farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli qilib farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda etarlicha tahlil qilingan. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Ogʻzaki metodlar.
2. Koʻrsatmali metodlar.
3. Amaliy metodlar.

Bu metodlar oʻzaro bogʻliq boʻlganligi sababli ularni doim ham aniq chegaralab boʻlmaydi.

Har bir oʻqitish metodining oʻz vazifasi bor. Adabiyotlarda oʻqitish metodlarining ragʻbalantiruvchi (motivlashgan), taʼlimiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

Oʻqituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarni tanlashda ana shu usullarning bajarilishi mumkinligini, ularning tarkibini hisobga olib, shu asosda ragʻbatlantirish, kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash taʼlimning nazariy asoslarini koʻrishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va ijod uchun asos boʻladi.

Quyida oʻqitish metodlari haqida fikr yuritiladi:

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning tasniplarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan boʻlib, ular koʻnikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, koʻrsatmalilik nazariya bilan amaliyotni oʻzaro bogʻlash, izlanish metodlaridan iboratligi oʻz aksini topgan. Bularning gʻoyalardan hozirgi taʼlim tizimida ham foydalanish mumkin.

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin oʻqitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish - rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

M. A Danilov va B.P. Yesipovlar quyidagilarni taklif etishadilar:

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya-tushuntirish, maʼruza, suhbatlar, koʻrsatmali qoʻllanmalarni namoyish etish.

2. Talabalarda koʻnikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, koʻnikma va malakalarni tekshirish, joriy kuzatishlar, ogʻzaki soʻrash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S. I. Perovskiy va Ye.Ya Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga boʻlishni koʻzda tutgan:

- agar talabalar mustaqil ishlasa - faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);
- agar talabalar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, maʼruza tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya).

Talabalarda innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni oshirish tadqiqiy oʻqitish jarayonida 1-bosqich talabalari ishtirokida oʻtkazildi.

Eksperimental tadqiqotni futbol darsini seminar mashgʻulotlarida oʻtkazdik.

Tajriba-tadqiqotda asosan, innovatsion usullar: «Ajurli arra», «Breynstorming», «Klaster», «Insert», «BBB» oʻyinlari orqali talabalarning nazariy bilimlarni oshirishga moʻljallangan tizimni tadqiq qilishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻydik.

Tajriba-sinovda eksperimental guruhlarini tavsiya qilayotgan metodika boʻyicha oʻqitdik.

Sinov guruhlardagi talabalarning oʻqish jarayoni esa anʼanaviy metodika boʻyicha davom etdi. Tadqiqot boʻyicha barcha maʼlumotlar maxsus qaydnomalarga yozib borildi va

ularga statistik ishlov berildi.

Tadqiqot darslari asosan quyidagi bosqichlarni qamrab olishi lozimligi nazarda tutildi:

- innovatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirishni talabalarga anglatish, buning uchun maxsus lugʻatlar bilan ishlash koʻnikmalarini hosil qilish;

- talabalarda nazariy bilimlar tizimini mukammal oʻzlashtirishlari uchun oʻz ustida mustaqil ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish;

- hamkorlikda ishlash malakalarini oshirish;

- oʻz fikrini tortinmasdan gapirishga oʻrgatish;

- kommunikativ qobiliyatlarini oʻstirish.

Birinchi dars boshlandi. Bu darsda «Ajurli arra» metodi orqali nazariy bilimlarni talabalarda oshirishga qaratilgan topshiriqlar majmuini tuzib chiqdik.

Nazariy bilimlarni oʻzida qamrab olgan matnli materiallar bir nechta asosiy boʻlaklarga (qismlarga), ajratildi.

Talabalarni guruhlariga boʻlib, har bir guruh aʼzosiga qirqilgan mavzu tarqatildi, chunonchi 1-bosqich futbol darsini seminar mashgʻulotida biror mavzusiga mos oʻquv topshiriqlar talabalarga tarqatildi.

Talabalar mavzuni muhokama qilib boshqalarga oʻrgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhiga birlashdilar.

Talabalar oʻzlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar; ekspert guruhlarda oʻrganganlarini ushbu guruhlariga oʻrgatishadi, yaʼni oʻqitish jarayoniga bu tarzda yondashilganda talabalarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni oʻzlashtirishlariga imkon yaratiladi.

Shuni taʼkidlash joizki har bir talaba ikki guruh tarkibida ishtirok etdi.

Dastlab birinchi guruhda talaba muayyan maʼlumot, bu oʻrinda biror bir sport turi (mavzu boʻyicha) toʻgʻrisidagi bilimlarga ega boʻldilar, keyinchalik, ekspert guruhiga birlashgach oʻquv elementlarini mustaqil oʻrganishdi. Biz ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun talabalarga oldindan ularning har biriga moʻljallangan axborotli paket tayyorladik. Ularga darslikdan qoʻshimcha tarzda gazeta, jurnal maqolalardan materiallar joylashtirdik. Bunda talabalar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar eksperimental tadqiqot diqqat markazida talabalarda nazariy bilimlarni oshirishga, ularda bilimdonlikni oshirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Xulosa. Futbol darsining seminar mashgʻulotlarida ularni nazariy bilimlarni oʻqitish jarayonida yangi taʼlim texnologiyalarini tadbiq etish maxsus fanlar mazmunini yangilash ularning asoslari borasida talabalarga chuqur nazariy bilimlar berish, nazariy bilimlar asosida amaliy faoliyat koʻnikma va malakalarini shakllantirish imkonini beradi.

Maxsus fanlarni oʻqitish jarayonida yangi taʼlim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini taʼminlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, oʻz ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshish kasb xislatlarining ham shakllanishiga zamin yaratadi.

Oʻtkazilgan tajriba-sinov tadqiqoti quyidagilarga asos boʻladi:

1. Tajriba-tadqiqot mobaynida eksperimental guruh talabalarga tavsiya qilgan tizim boʻyicha darslar tashkil qilinganda talabalarda nazariy bilimlarni oshirish mohiyatini chuqur anglashga zamin yaratildi.

2. Talabalarda matn bilan ishlash koʻnikmasi rivojlantirildi. Ular ogʻzaki va yozma nutqning barcha koʻrinishlarini egalladilar, matn boʻyicha tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishish malakalariga hamda guruh bilan ishlash texnologiyalariga ega boʻldilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 2023- y.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. -T., 2020 y.
3. Azizxadjajeva N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat» T., 2003.
4. Беспалко В.П. Слагаемые педагогические технологии. М: Просвещение, 1989. - 285 стр
5. Бўрибоев А. «Педагогик технология» Т., 2004 й.
6. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва: ИРПО, 1996, -336 стр.
7. Boliev A. Mustaqillik va taraqqiyot yo'lidan: Markaziy Osiyo Hamdo'stligi// O'zbekiston ovozi.-1997.-29 iyun.-B.3.
8. Golish L.V. «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari» Xalq ta'limi 2003 y.